

**KORXONALARIDA IQTISODIY RISKLARNI BOSHQARISHDA
RAQAMLASHTIRILGAN TIZIMLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

Nosirov Muzaffar Tolib o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Menejment" kafedrasi assistenti

muzaffarnosirov1992@gmail.com

Ilmiy rahbar: i.f.n (PhD) **R. R. Xojimatov**

Annotatsiya: Maqolada, korxonalarda iqtisodiy risklarni boshqarishni takomillashtirish va ularga qulay, oson va tez ravishda korxonaga xavf solayotgan iqtisodiy risklarni aniqlash, baholash, kamaytirish raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari ko'rildi.

Kalit so'zlar: Korxona, moliyaviy risk, iqtisodiy risk, raqamlashtirish, tavakkalchilik mexanizmlari, induksiya, deduksiya.

KIRISH: XXI asr texnologiyalar asri bo'lgani sababli, ilmiy-texnik taraqqiyot sayyoramiz bo'ylab qadam tashlab, texnologiya tobora rivojlanib, samaraliroq va foydalanuvchilar uchun qulayroq bo'lib bormoqda. Shu bilan birga yangi ko'rsatkichlar tizimi yaratilib, dasturiy ta'minotlar universallashtirilib, murakkablashmoqda. Bu jarayonda, iqtisodiy risklar ta'sirini e'tiborsiz qoldirish, moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan biznes jarayonlari samaradorligini risk ostiga qo'yishni anglatadi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot rivoji va innovatsiyalarga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham bu borada: "Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo'q, – deya ta'kidladilar" [1]. Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa bankmoliya arxitekturasi yangicha tus olishi hammamizga ma'lumdir. Raqamlashtirish kuchayib borishi, raqamlashtirilgan axborot dasturlariga bo'lgan talabni orttiradi. Bundan tashqari, innovatsiyalar yangi turdag'i iqtisodiy risklarni ham keltirib chiqarishi tabiiydir. Doimiy ravishda o'zgarib turadigan ko'p sonli iqtisodiy risklarni boshqarish esa murakkab jarayon hisoblanadi.

Raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanmasdan, iqtisodiy risklarni tez va aniq baholash, ularga vaqtida javob berish mumkin emas. Butun dunyo korporativ sektorida iqtisodiy risklarni boshqarish bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot katta talabga egaligini hisobga olsak, bu tizimlarni bizning tizimga integratsiya qilish muhimdir.

Demak, korxonalarda iqtisodiy risklarni boshqarish amaliyotida quyidagi muammolarning mavjudligi bu borada chuqur tahlillar olib borishga undadi:

- iqtisodiy risklarni boshqarish mexanizmining mavjud emasligi;
- korxonalar boshqaruva tuzilmasidagi iqtisodiy masalalar bo'yicha javobgarning mavjud emasligi;
- iqtisodiy boshqaruvda raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanish keng tarqalmaganligi;
- iqtisodiy risklar bo'yicha bilim va ko'nikmalarning kamligi va boshqalar.

ADABIYOTLAR SHARHI: Raqamlashtirilgan tizimlarni iqtisodiy resurslarga kiritish va risklarni boshqarish jarayoniga bir nechta omillar ta'sir qiladi, ular orasida birinchidan, korxonaning sanoati va ko'lami, ikkinchidan, resurslarning umumiyligi moliyaviy oqimi, uchinchidan, dasturiy ta'minot narxi hisoblanadi. Raqamlashtirilgan tizimlarni risklarni boshqarish jarayoniga maslahat kiritishda risklarni baholash elementlarini o'zaro ta'sirga qo'shilishi, konsultatsiya qilish, qabul qilish va qaror qabul qilish, hujjatlarning xo'jalik yurituvchi sub'eクト faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish va monitoringini ta'minlash uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish kerak: risklarni baholash, zaxiralarni shakllantirish, tezkor

boshqarish va risk omillarini monitoring qilish [2]. iqtisodiy risklarni raqamlashtirilgan tarzda boshqarish tizimlarini joriy etish asosan sug‘urta kompaniyalarida, valyuta bilan ishlaydigan kompaniyalarda, shuningdek faoliyati yuqori iqtisodiy risklar mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarda amalga oshiriladi [3].

Moliyaviy risklarni boshqarishda raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanish samaradorligi borasida bir qancha ilmiy maqolalarda isbotlangan bo‘lib, O.A. Pautova va boshqalar kemasozlik korxonasida ishlab chiqarish riskini boshqarish bo‘yicha raqamlashtirilgan tizimni joriy etish xususiyatlari va uning faoliyati risklilik holatlarini aniq stimulyatsiya qilish, risk qilish ehtimoli va oqibatlarini baholash, risklarni yuqori aniqlik bilan tahlil qilish imkoniyatini yoritgan bo‘lsalar [4], V.A.Shugoreva operativ bank risklarini boshqarish jarayonini optimallashtirish uchun banklarda ixtisoslashtirilgan raqamlashtirilgan tizimlarni birlashtirish zarurligi haqida ta’kidlagan [5]. N.N.Butorin va D.A.Pavlov aynan, korxonada risklarni boshqarishda raqamlashtirilgan tizimini joriy etish samaradorligini tahlil qildi [6]. G.P.Sapko va boshqalarning ilmiy ishida boshqaruv jarayonni boshqarishda raqamlashtirilgan tizimlarining xavfsizlik riskini tahlil qilish va boshqarish bo‘yicha asosiy yondashuvlarning umumiyo ko‘rinishi keltirilgan [7]. D.V.Sulim esa, moliyaviy risklarni hisoblashni raqamlashtirish zarurligi va moliyaviy riskni baholashning samarali usuli bo‘lgan – VaR usulini ko‘rib chiqadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL: Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va boshqa usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, iqtisodiy risklarni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish doirasida, iqtisodiy risklarni boshqarish tizimining tushunchalari aniqlandi, iqtisodiy risklar tasniflandi va baholash metodologiyasi shakllantirildi.

NATIJALAR: Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va boshqa usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, iqtisodiy risklarni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish doirasida, iqtisodiy risklarni boshqarish tizimining tushunchalari aniqlandi, iqtisodiy risklar tasniflandi va baholash metodologiyasi shakllantirildi.

Iqtisodiy risklarni boshqarish raqamlashtirilgan tizimini joriy etishning ikkita varianti mavjud: yirik korxonalarni boshqarish bo‘yicha axborot tizimining bir qismi sifatida ixtisoslashgan modul yoki alohida tizim joriy etish. Birinchi holda, loyihaning muddati iqtisodiy risk boshqaruv tizimining o‘zi amalga oshirilish vaqt bilan belgilanadi, ammo natijada kompaniya integral yechimni oladi. Ikkinci holda, korxonada qaysi iqtisodiy risk boshqaruv tizimi ishlatalishiga bog‘liqlik yo‘q, lekin, qoida tariqasida, qo‘sishimcha integratsiya ishlari talab qilinadi. Shuning uchun xolding tuzilishiga ega bo‘lgan, ko‘plab bo‘linmalari o‘zlarining IT-infratuzilmasi va turli xil iqtisodiy risk boshqaruv tizimlariga ega bo‘lgan kompaniyalarga mustaqil ravishda iqtisodiy risklarni boshqarish tizimini joriy etish tavsiya etilishi mumkin.

Moliyaviy risklarni boshqarish funksiyalarini amalga oshiradigan juda ko‘plab tizimlar mavjud. Ulardan ba’zilari iqtisodiy risklarni boshqarish moduliga ega loyihalarni boshqarish bo‘yicha axborot tizimlari, boshqalari rejalashtirish tizimlariga ilovalar, hamda qo‘sishimchalar yoki mustaqil ravishda iqtisodiy risklarni boshqarish uchun dasturiy mahsulotlarni tashkil etadi.

Moliyaviy risklarni boshqarish funksiyalarini amalga oshiradigan juda ko‘plab tizimlar mavjud. Ulardan ba’zilari iqtisodiy risklarni boshqarish moduliga ega loyihalarni boshqarish bo‘yicha axborot tizimlari, boshqalari rejalashtirish tizimlariga ilovalar, hamda qo‘sishimchalar yoki mustaqil ravishda iqtisodiy risklarni boshqarish uchun dasturiy mahsulotlarni tashkil etadi.

XULOSA VA MUNOZARA: Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, asosan raqamli texnologiyalarni joriy etish va korporativ boshqaruvni rivojlantirishga qaratilganligini

hisobga olsak, korxonalar iqtisodiy risklarini raqamlashtirilgan tizimlardan foydalangan holda boshqarish tizimini joriy etish korxona faoliyati samaradorligini ta'minlashga imkon beradi.

Umuman olganda, yuqorida fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosa va takliflarni bildirishimiz mumkin:

- butun kompaniya bo'ylab iqtisodiy risklarni boshqarish bo'yicha yagona metodologiyani amalga oshirish. Tizimni qurishda korxonada iqtisodiy risklarni boshqarish modelining o'ziga xosligi hisobga olinadi, shu bilan birga barcha biznes jarayonlar uchun yagona metodologiya qo'llaniladi; – iqtisodiy risklarni kataloglashtirish. Raqamlashtirish vositalaridan foydalanish nafaqat iqtisodiy risklarni boshqarish tizimining hozirgi holati haqida, balki o'tgan davrlar uchun ma'lumot olish uchun ham yaxlit ko'rinishni shakllantirishga imkon beradi;

- iqtisodiy risklarni boshqarish shaffofligini ta'minlash. Tizimni tatbiq etishning muhim natijasi bu moliyaviy risklar xaritasini iqtisodiy risklarni boshqaruvchilaridan jarayonlarni keyingi nazorat qilish va rivojlantirish uchun egalariga o'tkazishdir, chunki hech kim biznes jarayoni va uning moliyaviy risklarini egasidan yaxshi bilmaydi;

- barcha jarayonlarning bajarilishini nazorat qilish. Nazorat qilish tartibqoidalarda ko'rsatilgan bo'ladi. Ammo ushbu jarayonlar qaerda va qanday amalga oshirilayotgani, ularning sohasidagi samaradorligi qanday baholanganligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Tizim kompaniyada ichki nazorat tizimining onlayn holatini xabardor bo'lish uchun qulay bo'lgan nazorat jarayonlarining bajarilishini qayd etish va o'z-o'zini baholashga imkon beradi;

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 22- sentabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/3848>
2. Медовников Д.С., Оганесян Т.К., Розмиров С.Д. Актуальные тренды развития российских быстрорастущих технологических компаний (на основе опроса компаний, участвующих в рейтинге) "ТехУспех" 2018 г
3. Лопарева А. М. Бизнес-планирование: учебник для среднего профессионального образования. 3-е изд., М: Юрайт, 2020. 273 с.
4. О.А. Паутова, Т.А. Михеева, Е.Г. Бурмистров. Автоматизированная система управления производственными рисками на судостроительном предприятии. Архитектура и основы функционирования. Труды конгресса "Великие реки" Выпуск 7, 2018 г
5. Щугорева В.А. Критерии и необходимость внедрения автоматизированной системы управления операционными рисками в Российском банке. Примеры решений. Экономические науки. Апрел 2015
6. Буторин Н.Н., Павлов Д.А. Автоматизация риск-менеджмента. Вестник науки и образования. 2018. Т. 2. № 5 (41). 39-41 с
7. Буторин Н.Н., Павлов Д.А. Автоматизация риск-менеджмента. Вестник науки и образования. 2018. Т. 2. № 5 (41). 39-41 с
8. Сулим Д.В. Автоматизация эффективных методов измерения финансового риска. "Актуалные проблемы гуманитарных и естественных наук" М: №3, 2011 г.